

MILLIY MA'NAViy MADANIYAT TIZIMIDA XALQ TA'LIM-TARBIYASI VA
MA'RIFIY IZLANISHLAR

Yunusova Nasiba Sharifovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

Gulmatova Ziroat Manapovna

MTIEK-4 guruh magistranti

Annotatsiya: *Inson hayotida ma'naviyatning o'рни beqiyosdir. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviy madaniyat umuminsoniy axloq me'yorlari, dinni o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi. Shu jihatdan olib qaralganda maqolada yoshlarni tarbiyalashda, ularda o'tmishga hurmat sifatlarini rivojlantirishda o'zbek xalq milliy qadriyatlarining ahamiyati haqidagi fikrlar asosiy o'rinni egallaydi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy madaniyat, ta'lim-tarbiya, xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi.*

Milliy ma'naviy madaniyat tizimida xalq ta'lim-tarbiyasi va ma'rifiy izlanishlari alohida o'rin tutadi. Ushbu qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyatni umuminsoniy ma'naviy madaniyat darajasiga ko'taradi, uni zamonaviy pedagogik texnologiya va usullar bilan boyitadi. "Ta'lim - ma'naviy qadriyatlarni qayta ishlab chiqarishning institusional kanalidir, shuning uchun ta'lim tizimining oshkora va latent maqsadli ko'rsatmalari ma'naviy qadriyatlarning jamiyatda tarqalganligi darajasini aniqlab beradi va buning orqali jamiyatning qadriyatlarga nisbatan birlashganligi va madaniy jihatdan gomogenligiga ta'sir qiladi"[1].

Xalq pedagogikasi asosan xalq og'zaki ijodi tarzida, har bir avlodning qarashlarini, fazilatlarini o'zida aks ettirib keladi. U «ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynadi. Oddiy insonlarmi yohud buyuk allomalar, shunchaki fuqaromi va yo yurt sultonlari, kichik suvoriymi yoki ulug' sarkardami, bari-bir xalq tomonidan yaratilgan, amalda bo'lgan, unga suyangan, tayangan holda yashasa, faoliyat ko'rsatsa kam bo'lmagan, el-yurt nazariga tushgan, olqishiga sazovor bo'lgan [2].

Xalq pedagogikasida yaratilgan usul, vosita va texnologiyalar zamonaviy pedagogikaga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Sharq xalqlari asrlar davomida to'plagan tajribalar xalq pedagogikasida mujassamlashgan. Shuning uchun faqatgina u o'gitlar, pand-nasihatlar to'plami emas, unda xalqning tarixiy-madaniy tajribasi mujassamlashgan.

«Odob - oltindan qimmat», «Axloq - inson qalbi», «Yaxshi kishi ham adashadi, lekin u aybni boshqadan qidirmaydi», «Qush uyasida ko'rganini qiladi», «Inoq oiladan baraka ketmas», «Allasi bor uyga o'lim yo'lamas» kabi maqol va matallarda bolani

ma'naviy pok qilib tarbiyalash masalalarini nazarda tutiladi. Umuman, xalq pedagogikasida axloq, odob, ezgulikni ulug'lash va yovuzlikni qoralash, yaxshi amalli, bilimli kishilarga ergashish-ga da'vat asosiy o'rinda turadi. O'lkamiz xalqlari badiiy ijodi, falsafasi ham ana shu an'ana asosida qurilgan.

Xalq pedagogikasi bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib, boyib, goho davr ta'sirida transformatsiyaga uchrab kelgan, bu jarayon uzluksiz davom etgan. Milliy ma'naviy madaniyatning «yuragi» - xalq pedagogikasi, «boshi» esa ma'rifiy izlanishlardir. Bu ikki yo'nalish bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldirib keladi. Ma'rifatsiz pedagogika, ta'lim-tarbiyasiz ma'rifat yo'q. Chunki «ta'lim tizimida ta'limning ijtimoiy (pragmatik) va sotsiyetal (qadriyatlarga oid) vazifalari mutanosibligi latent (yashirin) shaklda ifodalangan» [3].

Xalq ma'rifati, ma'rifiy izlanishlari insonni fikrlashga, yon-atrofni, olamni bilishga, idrok etishga bo'lgan intilishining natijasidir. Biroq xalqning ma'rifiy izlanishlari o'ziga xos voqelikdir, shu bois u individning ma'rifiy izlanishlaridan, ma'rifatidan farq qiladi. Masalan, individ mavjud ilmiy-ma'rifiy tajribalarni o'zining ilmiy-nazariy konsepsiyasidan kelib chiqib rad qilishi mumkin. Ingliz faylasufi Karl Poppening tanqidiy ratsionalizmi, nemis faylasufi F.Nitshening nigilizmi shunday yondashishga tayanadi. Ammo, xalq bunday yo'ldan bormaydi, unga mavjud an'analarni, ma'rifiy izlanishlarni tadrijiy davom ettirish xos. O'lkamiz xalqlarining milliy ma'naviy madaniyatida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» degan hayot haqiqatidan kelib chiqqan holda bugungi kunda amalga oshirayotgan madaniy va ma'rifiy sohalarda olib borayotgan ishlarimizning ta'siri va samarasini kuchaytirish bizning harakat dasturimizda alohida muhim o'rin egallaydi»[4].

Xalqning ma'rifiy izlanishlarini miflar, afsona va rivoyatlar, astrologiya, kundalik kuzatishlar natijasida Quyosh va Yer harakati, ob-havoning o'zgarishi va inson kayfiyati, organizmiga ta'siri, sihat-salomatlik, oila yurgizish, bolani parvarishlash va tarbiyalash haqidagi qarashlari, tushunchalarida ko'rish mumkin.

Miflar, afsona, rivoyat, asotir va astrologiya ibtidoiy kishining olamni idrok etish usulidir. Mif ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi bo'lib, kishilar hayoti, qarashlarining, badiiy tafakkurning ifodasi hisoblanadi. Mifning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlari tashkil etadi. Ilm-fanning rivojlanishi ularni g'ayrihayotiy hodisalar sifatida rad etdi. Ammo, ularning yon-atrofni, olamni bilishga bo'lgan qiziqish natijasida yuzaga kelganini inkor qilish mumkin emas. Biz uchun muhim narsa shundaki, ibtidoiy davrda yuzaga kelgan ilk izlanishlar keyingi davrlarda ham yashab, kishilarni ma'rifatga undab keldi. Ayniqsa, kundalik amaliy tajribalar, tabiatni kuzatish, uning inson hayotiga ta'sirini izlash ilmiy tadqiqotlarga yo'l ochib berdi.

Har bir xalqning o'z urf-odatlarini, irim-sirimlari, bashorat usullari, astrologik tasavvurlari mavjud. Ular ko'pincha voqealarning takrorlanishi qonunlariga tayanadi

va ko‘p hollarda bashoratlar tasdiqlanadi. To‘g‘ri, ularda mistik tasavvurlar, g‘ayriilmiy yondashishlar, xulosalar ham uchrab turadi. Biroq, mavzuimiz uchun ularda xalq ma‘naviy madaniyatining o‘ziga xos qirralari aks etib kelganini, uzoq tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida ilmiy-tafakkur izlanishlarga turtki bo‘lganini inkor qilish mumkin emas. Umuman, ma‘naviy madaniyat tizimiga til, urf-odatlar, xalq san‘ati, din, an‘analar, turmushning o‘ziga xosligi, xulq-atvor meyorlari, insonning tashqi va ichki olami, ya‘ni tashqi olamidagi uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi [5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13]. Insonning ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma‘naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma‘naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Ma‘naviyat ma‘rifat va madaniyat bilan bog‘liq. Ma‘naviy madaniyat tizimida din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o‘z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq meyorlarini o‘ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi [14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21]. Demak, barkamol avlodni tarbiyalashda, ya‘ni yoshlarda mardlik, tashabbuskorlik, axloqiy teranlik, ziyraklik, o‘tmishga hurmat sifatlarini rivojlantirishda o‘zbek xalq o‘yinlari, kurashlarining ahamiyati kattadir.

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelindi: o‘tkazgan izlanishlarimiz ko‘rsatadiki, ma‘naviy madaniyatda ana shu milliy xususiyatlarni ifoda etuvchi turg‘un o‘zak mavjud bo‘lib, milliy til, axloq, mentalitet, urf-odat va diniy e‘tiqodlar kiradi; biroq, ma‘naviy madaniyatda davr talablariga moslashib, undagi ijobiy yangiliklarni qabul qilib boradigan ustki qatlam ham mavjud bo‘lib, aynan ushbu qatlam sababli ma‘naviy madaniyatda davr talablariga muvofiq rivojlanish, izlanish sodir bo‘ladi. Ushbu qatlamga xalq og‘zaki ijodi, xalq amaliy san‘ati, bayramlari va marosimlari, xalq turmush tarzi, muomala madaniyati, estetik madaniyat, xalq ta‘lim-tarbiyasi (pedagogikasi), ilmiy-ma‘rifiy izlanishlari kiradi.

REFERENCES:

1. Руденко В.А. Образование и духовность в современном российском обществе: факторы и вектор диспозиции в процессе системных реформ. Автореф. д. соц.н. Ростов-на. /Д, 2007. С. 4.
2. Ўзбек педагогикаси антологияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - Б. 14 .
3. Чеботарев Ю.А. Трансформация культурного своеобразия российского образования в условиях социальной транзисии: автореф. Дис. ... д-ра социол. наук / Ю.А. Чеботарев. – Ростов н./Д, 2005. – С. 4.
4. <http://www.uza.uz/ru/documents/o-strategii-deystviy-po-dalneyshemu-razvitiyu-respubliki-uzb-08-02-2017>

5. Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс: СПб.: Пер. с исп. / Х.Ортега-и-Гассет.- Москва: ООО «Издательство АСТ», 2001. С.15.
6. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2008.- Б.237.
7. Yunusova Nasiba Sharifovna. (2021). Mass Culture and Informational-Psychological Security in The Modern Process. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 68–72. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/86>
8. Khodjaeva, N. Sh., & Yunusova, N. Sh. (2021). Spiritual and moral education of youth in makhalla. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (104), 685-688.
9. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_6_2
10. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
11. Нилуфар Жўраевна Назарова, & Миршод Нўъмонович Ҳасанов (2022). ТАЛАБАЛАРДА БЎШ ВАҚТДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 752-758.
12. Abror Sanakulov, Dustmurod Rakhmonov, Nilufar Nazarova. (2020). Social Service Technologies and Mechanisms of its Implementations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(3), 14192 - 14198. Retrieved from <http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/31869>
13. Самаров Р. С. (2015). Таълим мазмунини белгилашнинг структуравий-функционал жиҳатлари (шахсга йўналтирилган таълим мисолида). Современное образование (Узбекистан), (12), 9-14.
14. Назарова, Н. Ж. (2022). YOSHLARDA RAQOVATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH PARADIGMALARI: SHARQ VA G 'ARB KONTEKSTIDA. Журнал Социальных Исследований, 5(2).
15. Самаров, Р. (2017). Инсон камолотини таъминлашда адабиёт: структуравийфункционал жиҳат. Ўзбекистонда хорижий тиллар. Илмий–методик электрон журнал, (1), 15.
16. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3(6), 984-988.

17. Н. Ш. Юнусова, Жавлон Алимухаммедов, & Мухаммад Суяров (2022). **ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ДИН ВА АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ.** Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 222-226.
18. Самаров, Р., & Сатторов, Ё. (2014). Ахборот маданияти ва уни шакллантиришнинг назарий-амалий аҳамияти. Современное образование (Узбекистан), (1), 13-17.
19. Ramatov, J., Rakhmanova, S., & Yunusova, N. S. (2020). Philosophical analysis of socio-economic forecasting of the future. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 991-999.
20. Рахмонов, Д. А. (2017). **THE SOCIAL-CULTURAL PECULIARITIES OF SOCIAL WORK (IN THE MODEL OF SERVICING OLDER PEOPLE).** Theoretical & Applied Science, (11), 285-288.
21. Abdinazarovich, R. D., Anarbaevich, P. K., & Ikromovich, T. A. (2022). Scientific Development in New Uzbekistan: Results and Prospects. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 76-82.